NAZAR ESHONQULNING “BEVAQT CHALINGAN BONG ” HIKOYASIDA FOJIAVIYLIK VA INSON RUHIYATI TALQINI

Beknazarova Ra'no Yunusjon qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
I kurs magistranti

Annotatsiya . Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Nazar Eshonqulning “Bevaqt chalingan bong” hikoyasida fojiaviylik va inson ruhiyati talqinining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Hikoyada inson ruhiyatidagi og‘riqlar, ularni yuzaga keltirgan fojiali holatlar hamda inson va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar badiiy ifodasini topgan. Yozuvchi asarda ruhiy og‘riqlarni bevosita va ochiq tasvirlamaydi, aksincha, ularni qahramon ichki olamidagi sokin, ammo uzluksiz kechinmalar, ramzlar, metaforalar orqali matn qatlamlariga singdiradi. Kalit so‘zlar: Zamonaviy o‘zbek adabiyoti, Nazar Eshonqul, fojiaviylik, ruhiyat talqini, inson va jamiyat, ramz, metafora, badiiy ifoda, ichki olam.

Abstract
This article analyzes the specific aspects of tragedy and the interpretation of human psychology in the story "The Prematurely Rung Bell" (Bevaqt chalingan bong) by Nazar Eshonqul, one of the prominent figures of modern Uzbek literature. The story artistically expresses the pain in the human psyche, the tragic circumstances that cause them, and the conflicts between the individual and society. The author does not depict psychological pain directly or overtly; instead, he embeds it within the layers ofthe text through the hero's internal, quiet, yet continuous experiences, symbols, and metaphors. Keywords: Modern Uzbek literature, Nazar Eshonqul, tragedy, psychology, individual and society, symbolism, metaphor, artistic interpretation, inner world.

Аннотация: В данной статье анализируются специфические аспекты трагизма и интерпретации человеческой психологии в рассказе Назара Эшонкула

«Колокол, пробивший не вовремя» (Bevaqt chalingan bong), одного из крупнейших представителей современной узбекской литературы. В рассказе нашли художественное выражение душевные страдания, вызвавшие их трагические обстоятельства, а также противоречия между личностью и обществом. Писатель не изображает душевную боль прямо и открыто; напротив, он внедряет её в слои текста через тихие, но непрерывные переживания во внутреннем мире героя, символы и метафоры. Ключевые слова: Современная узбекская литература, Назар Эшонкул, трагизм, психология, личность и общество, символизм, метафора, художественная интерпретация, внутренний мир.

O'zbek adabiyotida keyingi yillarda inson ruhiyati va uning ichki iztiroblarini tahlil qilishga intilish kuchayib bormoqda . Ushbu jarayonda Nazar Eshonqul asarlari alohida ahamiyati kasb etadi. Adib o'z hikoya va qissalarida qahramon ichki dunyosini uning xotiralari, qo'rquvlari, yo'qotishlari va iztiroblari bilan birga inson mavjudligining eng murakkab qirralarini ham ko'rsatadi. Yozuvchi asarlari an'anaviy qoliplardan chekingan holda psixologik jihatdan insonning ichki dunyosini ramzlar orqali chuqur tahlil qiladi. Ayniqsa insonning ong osti kechinmalari va ruhiy jarohatlarini mahorat bilan tasvirlaydi. Shu jihatdan yozuvchi asarlari zamonaviy o'zbek adabiyotida psixologizmning yorqin namunalaridan biridir . Yozuvchining ,, Bevaqat chalingan bong " hikoyasida inson ruhiyatidagi og'riqli xotiralar va fojiali voqealarni mahorat bilan tasvirlanadi. Asarning nomi ham ramziy ma'noga ega : ,, bong " - qo'ngiroq ovozi , ,,bevaqt " - o'z vaqtida bo'lmagan degan ma'noni aglatadi. Bu nom fojianing mohiyatini aniqlaydi . Asar bosh qahramonining ruhiyatidagi holat ham ana shunday ,, bevaqt chalingan bong" misoli qaytadan jaranglab yuzaga chiqadi. Ushbu hikoyada fojiaviylik faqat voqealar rivojida emas, balki inson qalbidagi ichki iztiroblar, og'riqli xotiralar , ichki parachalanishlar orqali ifodalanadi .

Yozuvchi hikoyanining bosh qahramonini shunday tasvirlaydi : ,, u odamlar bilan ilakishib ketolmadi . Kim unga o'zini yaqin tutsa , u shunchalik o'z

qobig'iga o'ralib olar , bu yerdagilarga qorong'u bo'lgan hayoti kabi burchakdagi quyosh nuri tushmaydigan pastakkina hujrasiga kirib kuni bo'yi chekib o'tirardi: hujraga terchil badan hamda tamaki hidi o'rnashib qolgan, g'alati osoyishtalik va jimlik bilan kun uzog'i shiftda suzib yuradigan hidlar uning yolg‘iz va so'qqabosh hayoti to'ldirib , bu besarishta va ipirisqi xonaga tiriklik bag'ishlab turganday edi: zotan , uning ko'nikmaga aylangan sokin va yolg'iz hayotini bu yillarda hech kim buza olmadi. Bu eshigi qaysi tomondaligi noma'lum bo'lgan to'zigan qo'rg'onga hech kim kirilomadi11 . Qahramonning odamlar bilan kirishib keta olmasligi va o‘z qobig‘iga o‘ralishi uning jamiyatdan ma’naviy uzilganini ko‘rsatadi. Hujra — bu shunchaki yashash joyi emas, bu qahramonning ichki olami. Uning "pastakkina" va "quyosh nuri tushmaydigan" ekani qahramonning ruhiyatida umidning so‘ngani, u yerda faqat qorong‘ulik va o‘tmish borligiga ishora qiladi. Uning hayotidagi sokinlik "ko‘nikmaga" aylangan. Bu xotirjamlik emas, balki ko'nikishdir. Nazar Eshonqul ushbu tasvir orqali o‘quvchiga savol beradi: inson shunchalik darajada o‘zidan voz kechishi mumkinmi? Aslida vayron bo'lgan joy uning uyini emas balki taqdiri va qalbidir.Tasvir qahramonning ekzistensial inqirozini ifodalaydi. U tirik, lekin uning tirikligi faqat tamaki hidi va dim xonadagi sukunat bilan tasdiqlanadi .Qahramonning qobig‘i shunchalik qalin-ki, unga hech kim va hech narsa kira olmaydi. Qorovulning o‘tmishida qandaydir katta og‘riq borligini mana shu "quyosh nuri tushmaydigan hujra" detali orqali his qilish mumkin . Hikoyada qorovul bilan suhbatlashadigan unga faqat sirlarini ayta oladigan yagona inson paydo bo'ladi bu kotib edi. Kotib nafaqat qorovulni ishda olib qoladi , balki u bilan juda yaqin bo'lib ketadi. Qorovul kotibni shunday tasvirlaydi: Kotib odamshavanda kishi edi , qorovul tezda buning guvohi bo'ldi . U sherigiga biroz takkaburona tikilar , lekin ulfatijon yigit edi . ,, Agar bu dunyoda muruvvatli va qalbi toza yigit bo'lsa , u mana shu kotib " , - deb o'ylardi qorovul.2 Qorovul o‘zining past darajadagi ijtimoiy

1 Eshonqul n . Saylanma 1(hikoyalar) [Matn]/ Nazar Eshonqul .-Toshkent :,, Akademnashr’’ , 2022-B.59.

2 Eshonqul n. Saylanma 1(hikoyalar) [Matn]/Nazar Eshonqul. –Toshkent:,,Akademnashr’’, 2022-B.62.

holatini tan olib bo‘lgani sababli, kotibning unga nisbatan takkaburona (yuqoridan pastga) qarashini tabiiy deb biladi. Bu — qurbonning o‘z jallodiga bo‘lgan ilk ruhiy bog‘lanishidir. Qorovulning "Agar bu dunyoda muruvvatli va qalbi toza yigit bo'lsa, u mana shu kotib" degan xulosasi uning o‘ta ma’naviy yolg‘izligidan dalolat. Uning hayotida yaxshilik va muruvvat shu qadar kam bo‘lganki, u kotibning yuzaki iltifotini eng oliy insoniylik deb qabul qiladi. Yozuvchi bu yerda qahramonning ichki monologi orqali o‘quvchini keyingi fojialarga tayyorlaydi. Hozirgi "qalbi toza" deb hisoblangan obraz hikoya yakunida "qalbi eng iflos" kimsaga aylanishi — asarning fojiaviylik quvvatini oshiradi.Qorovul o‘z ixtiyori bilan o‘ziga but yaratadi. U kotibning shaxsiyatidagi kibrni „ulfatijonlik" deb ataydi va o‘zining so‘nggi sadoqatini aynan mana shu insonga ko'rsatadi va unga sig'inadi.*Qorovulning kotib haqidagi o‘ylari uning ruhiy qaramligini fosh etadi: «U menga joy berdi, o‘zi bilan teng ko‘rib, odam o‘rnida qabul qildi, mendan burnini jiyirmadi, uning ko‘ngli nurday toza, bunday ulug‘ odam yana qayerda bor?!» Bu yerda biz psixologik qaramlikning eng ayanchli nuqtasini ko‘ramiz. Qorovul o‘zini tirik inson deb hisoblamagani sababli, Kotibning yuzaki iltifotini va hatto takkaburligini ham "muruvvat" deb qabul qiladi. Qorovulning ushbu ichki monologi uning naqadar ayanchli ahvolda ekanini ko‘rsatadi. Uning uchun "odam o‘rnida qabul qilinish" — eng oliy ne’matga aylangan. Nazar Eshonqul bu yerda qorovulning o‘zligini butunlay yo‘qotganini tasvirlaydi: u o‘ziga baho berish huquqini kotibga yoki boshqalarga topshirib qo‘ygan. Uning nazarida Kotib – "vujudi nurdan iborat xaloskor". Biroq, bu "nur" aslida qorovulning ko‘zlarini haqiqatdan to‘sib turuvchi parda edi. Kotib obrazi orqali muallif jamiyatdagi soxta qadriyatlar va yaltiroq niqob ostidagi tubanlikni mohirona chizib bergan. Qorovul esa o'zining hech kimga eshitmagan og'riqli o'tmishini ichib yig'lab kotibga aytib bergandi . Faqat kotibgina uning o'tmiishi haqidagi bor haqiqatni bilardi. Birgina kotibga ishonardi ammo kotib uni odam o'rnida ko'rmasdi aslida kotibning qorovulning onasi haqida aytgan gapalarini eshitganda qorovul barcha haqiqatni tushunib yetadi.Qorovul o‘zining eng og‘riqli xotirasini — ochlikdan o‘lmaslik uchun onasining qanday xo‘rlanganini*

*kotibga aytib bergan edi. U buni daryo bo‘yida, ichib o‘tirib, ko‘ngilni bo‘shatish, dardlashish uchun aytgan edi. Kotib esa bu **"qonli xotira"**ni qizni qo‘rqitish uchun qurolga aylantirdi. Bu qorovul uchun "xiyonat" so‘zi ham kamlik qiladigan darajadagi tubanlikdir. «Onasi hosilotning o‘ynashi bo‘lgan*[3]*». U quloqlariga ishonmadi; yanglish eshitmadimmikin deb o‘yladi. Lekin eshik orqasidan kotibning ovozi juda aniq-tiniq eshitilib turardi.Ushbu parcha hikoyaning tub burilish nuqtasi (peripetiya) hisoblanadi. Aynan shu jumlalar qorovulning ko‘zini ochadi va u o‘zi sig‘ingan "but"ning aslida naqadar jirkanch ekanini anglab yetadi.Qorovul uchun onasi — uning hayotidagi yagona toza, aziz va daxlsiz xotira edi. U kotibga ishonib, bolaligidagi eng og‘riqli nuqtalarini, onasining qanday xo‘rlanganini aytib bergan. Kotib esa bu ishonchdan unga qarshi eng ifllos qurol sifatida foydalandi. Ruhiy zarba: "U quloqlariga ishonmadi" jumlasi qahramonning dunyosi ostin-ustin bo‘lib ketganini anglatadi. Bu shunchaki haqorat emas, bu qorovulning butun borlig‘ini — uning o‘tmishi, azoblari va so‘nggi panohini yo‘q qilishdir.Eshik ortidan kelayotgan "aniq-tiniq" ovoz — bu haqiqatning ovozi. Shu paytgacha kotib qorovul uchun "nurli xaloskor" edi. Endi esa u o‘zining haqiqiy qiyofasida — birovning dardi ustidan kuladigan, eng nozik tuyg‘ularni bulg‘aydigan jallod sifatida namoyon bo‘ldi. "Lekin eshik orqasidan kotibning ovozi juda aniq-tiniq eshitilib turardi" — bu jumla qorovulning endi o‘zini aldab yashay olmasligini bildiradi. U haqiqat bilan yuzma-yuz keldi. Bu ovoz uning qul sifatidagi hayotiga yakun yasovchi o‘lim hukmi kabi jaranglaydi. "Ushbu parcha sadoqat va xiyonat o‘rtasidagi chegarani belgilaydi. Kotib o‘zining 'ulfatijon' niqobini yirtib tashlab, qorovulning eng muqaddas tuyg‘usiga tupurdi. Aynan shu 'aniq-tiniq' eshitilgan haqorat qorovulni maymoq sig‘indidan qasoskorga aylantirgan asosiy turtkidir."Bongning chalinish lahzasi" deb atash mumkin. Qorovulning g‘ururi aynan shu ondan boshlab uyg‘onishga kirishadi.*

3 Eshonqul n. Saylanma 1(hikoyalar) [Matn]/Nazar Eshonqul . –Toshkent: ,, Akademnashr ” 2022-B. 62.

Agar unga bir shisha aroq bersam, qizini qo‘ynimga solib qo‘yadi. Bir hovuch un uchun hosilot onasini o‘ynash qilib olgan. Ishonmasang, ana, o‘zidan so‘ra, bir qultum quyib bersam, bularning hammasini o‘zi senga gapirib beradi.[4]*Kotibning nutqida inson qadri mutlaqo yo‘q: "Bir shisha aroq" — qorovulning g‘ururi narxi; "Bir hovuch un" — onasining nomusi narxi; "Bir qultum" — haqiqatning narxi. Kotib bu yerda nafaqat qorovulni, balki butun insoniyatni masxara qilmoqda. Uning nazarida hamma narsani sotib olsa bo‘ladi. Bu obraz orqali Nazar Eshonqul ma’naviyatsiz hokimiyat va soxta rahnamolarning haqiqiy qiyofasini ko‘rsatib bergan. Bu gaplarni kotib qizga aytar ekan shunchaki qizni qo’rqitish uchun qorovulning o'tmishidan foydalandi. – Chakki aytdingiz shuni, – dedi qorovul, – onam hurday ayol ekanini yaxshi bilardingiz… men sizga ming marta aytganman. Chakki qildingiz shuni…*[5] *Qorovulning ,, Ming marta aytganman’’ degan hayqirig‘ida yillar davomida to‘plangan ruhiy yuk yotibdi. Travma nazariyasiga ko‘ra, bu holat “guvohsiz azob” (suffering without witness) deb ataladi.*[6] *Inson o‘z dardini kimdir eshitishi va tasdiqlashi uchun aytadi. Qorovul Kotibni o‘z dardiga "guvoh" qilib tanlagan edi, u o‘zining eng zaif nuqtasini — onasining pokiza nomini unga ishonib topshirgan. Biroq kotib bu og‘riqni eshitmadi. . Eshitilmaslik va qadrsizlanish qorovulning ichidagi portlashni tayyorlagan asosiy omildir. Har bir insonning ruhida shunday bir daxlsiz hudud borki, u yerda uning so‘nggi panohi — onasi, bolaligi yoki g‘ururi yashirinadi. "Onam hurday ayol edi": Bu qorovul uchun shunchaki fakt emas, bu uning butun hayoti davomida tayanib kelgan yagona toza haqiqati. Kotib bu haqiqatni oyoqosti qilishi bilan qorovulning so‘nggi sadoqatini ham yo‘q qildi. "Chakki qildingiz" jumlasi bu yerda shunchaki e'tiroz emas, balki o'lim hukmi kabi jaranglaydi. U asta-sekin garang va karaxt qiyofada kotibga*

4 Eshonqul n.Saylanma 1(hikoyalar)[Matn] /Nazar Eshonqul.-Toshkent . ,,Akademnashr’’ , 2022-B.79.

5 Eshonqul n.Saylanma 1(hikoyalar) [Matn]/Nazar Eshonqul –Toshkent . ,, Akademnashr ’’, 2022-B. 82.

6 Herman ,J . (1992).Travma end Recovery : The aftermath of Violince. Basic Books. P.8.

yaqinlasha boshladi, to‘satdan qo‘llari o‘rnida qon istab jaranglagan qilichlar o‘sib chiqqandek hamda ko‘zlari bitib, o‘rnida achimsiq go‘r hidi kelayotgan lahm ichiga yoqib qo‘yilgan bir juft ko‘rtaqir sham paydo bo‘lgandek daroz, naynov, tutoqqan holda maymoq yurish bilan kotibga tobora yaqinlashib borar, oldida o‘ziga hamon mensimay, qahr bilan takabburona qarab turgan odamni ushlab olib, bir yamlab yutib yuboradiganday vajohatda edi[7]*. Qorovulning tashqi qiyofasidagi o‘zgarishlar uning ichki dunyosidagi "buzilish" natijasidir: "Qo‘llari o‘rnida qilichlar o‘sib chiqqandek": Bu shunchaki o‘xshatish emas, balki qahramonning o‘zligini himoya qilish uchun qurolga aylanganini anglatadi. Yillar davomida kamsitilgan qo‘llar endi sadoqat uchun emas, qasos uchun xizmat qiladi. "Achimsiq go‘r hidi" va "Ko‘rtaqir sham": Bu tasvir qorovulning ruhiy o‘limini anglatadi. Uning ichidagi inson o‘lgan, o‘rnida faqat qora niyat va o‘lim hidi qolgan. U endi tirik odam emas, balki qotillikka dasturlandan bir "mavjudot"dir. Ushbu parchadagi tasvir usuli insonni o'ziga tortadi Yozuvchi qorovulning psixologik holatini bevosita ,, u g'azablangan " yoki ,,* u aqldan ozdi’’ deb aytmaydi. Buning o'rniga yozuvchi tana tilidan foydalanadi: ,, garang va karaxt " qiyofa , «qon istab jaranglagan qilichlar » metaforasi, «go'r hidi » obrazi. Bu tasvirlar travma psixologiyasidagi dissossiatsiya holatini — qahramon o'zidan «uzib qo'yilishi»ni — badiiy ifodalaydi. Travma nazariyotchisi van de Kolkning ta'biriga ko'ra:,, haddan tashqari kuchli his-tuyg'u paytida odam o'z tanasini «tashqaridan» ko'rib, boshqacha his qiladi’’[8] — aynan shu holat bu sahnada metaforik tarzda aks ettirilgan.

Hikoyaning so'nggi sahnasi esa fojiaviylikning eng to'lliq ifodasidir. Bu sahnada yozuvchi qahramonning taqdirini bir vaqtda ko'rsatib, unda bir xil narsa — yo'qolish, mag'lubiyat, oxiri ko'rinmagan jarohat — borligini namoyon qiladi: ,, qonga belangan qo'llariga grafinning bir parcha sinig'ini xanjarday tutib olgan , to'satdan boshlanib hamma narsani ostin - ustin qilgach , o'zidan keyingilarga chang

7 Eshonqul n. Saylanma 1(hikoyalar) [Matn]/Nazar Eshonqul – Toshkent. ,, Akademnashr’’ , 2022-B . 82.

8van der Kolk, B.(2014)The Body Keeps the Score .viking.

- g'ubor qoplagan dalaniyu shox- shabbalari singan daraxtlar bilan to'zigan xazonlarni qoldirib so'ngan bo'rondek yuzida telbalik va jazava to'nib qolgan qorovul divanda horg'in va mag'lub ahvolda o'tirar " [9] Bu parchadagi ,, so’ngan bo’rondek’’ metaforasi hikoyaning asosiy fojiaviy obrazidir. Bo'ron — bu kuch, harakat, hayot; lekin u so'ngan — va ortida faqat vayronalik qolgan. Bu «bo'ron — so'nish» metaforasi inson hayotining qisqaligi va ma'nosizligi haqidagi falsafiy mulohazani ifodalaydi Hikoyada qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlar travma psixologiyasining asosiy belgilari bilan to'la. Eng avvalo, qorovul obrazida uzoq yillar davomida to'plangan ichki g'azab va iztirob ko'rinadi. Bu g'azab o'z o'zidan paydo bo'lmagan — u to'plangan, siqilgan, aytilmagan narsadan yuzaga kelgan. Yillar davomida yig'ilgan og'riqlar , haqsizliklar oxirida uyg'ongan g'urur fojiani yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Kotib obrazida esa boshqa turdagi ruhiy holat — hissiy qotib qolish (emotional numbness) — ko'rinadi. U qorovulning og'rig'ini ko'rmaydi, his etmaydi, unga «bepisand» qaraydi. Bu bepisandlik — shunchaki kibr emas. Hikoyaning so'ngida kotibning taqdiri ham fojiali yakun topadi.

, «Bevaqt chalingan bong» hikoyasida fojiaviylik «past ovozda» — doimiy va so'zsiz og'riq sifatida — ifodalanadi. Yozuvchi fojiani bevosita tasvirlamaydi: u uni qahramon tanasi, metaforalar va ramziy manzaralar orqali his ettiradi. Qahramon ruhiyatidagi travma belgilari — dissossiatsiya, «guvohliksiz azob», hissiy qotib qolish — Cathy Caruth va Judith Herman travma nazariyalari bilan to'liq mos keladi. Qorovulning og'riqli xotiaralari travmaning uzoq muddat siqilishi va portlashining badiiy ifodasi hisoblanadi. sukut poetikasi va ramziy obrazlar — oy shu'lalari, kema va bandargoh, chigirtkalar hushtagi — fojiaviylikni bevosita emas, bilvosita his ettirish uchun ishlatiladigan asosiy badiiy vositalardir. Bu vositalar hikoyani bir vaqtning o'zida milliy va universal ahamiyatga ega asarga aylantiradi.

Nazar Eshonqulning “Bevaqt chalingan bong” hikoyasi — inson ruhiyatining eng qorong‘u qatlamlarini tadqiq etuvchi ekzistensial asardir. Hikoya

9 Eshonqul n. Saylanma 1(hikoyalar) [Matn]/ Nazar Eshonqul .- Toshkent : ,,Akademnashr’’ , 2022-B.83.

fojiasi shunchaki qotillik yoki jismoniy o‘limda emas, balki kechikkan anglash va eshitilmaganlik fojiasidadir.

Maqolada ko‘rib chiqilganidek, asar markazida ikki xil ruhiy tanazzul to‘qnashadi:

Qorovul timsolida yillar davomida eshitilmagan, “guvohsiz” qolgan azobning (suffering without witness) portlashi. Uning “ming marta aytgan” dardi kamsitilganda, qahramonning ichidagi i g‘urur uyg‘onadi. Biroq bu uyg‘onish hayotni qutqarishga emas, balki uni butunlay vayron qilishga xizmat qiladi. Kotib timsolida hissiy qotib qolish (emotional numbness) va takabburlikning halokati. O‘zini boshqalardan baland tutish va insoniy og‘riqlarga bepisand qarash kotibni xavfni his qilish qobiliyatidan mahrum etdi.

Asar sarlavhasidagi “bong” — bu uyg‘ongan vijdon va tiklangan g‘urur ramzi. Ammo uning “bevaqt”ligi insoniyatga berilgan ogohlantirishdir, agar inson o‘zligini asrash uchun kurashni juda kech boshlasa, u endi xaloskorga emas, balki o‘z qotiliga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda: Muallif o‘quvchini har bir insonning ruhidagi “muqaddas chegara”ni hurmat qilishga va bir-birining dardiga “soqov guvoh” bo‘lmaslikka chorlaydi. Zero, o‘z vaqtida chalinmagan bong — kelajakni emas, faqat o‘tmish xarobalarini yorituvchi so‘nggi sham bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Eshonqul N. Saylanma I (Hikoyalar) [Matn] .hikoyalar / N.Eshonqul. - Toshkent : ,, Akademnashr" , 2022.

2. Eshonqul N. Mendan “men”gacha: adabiy-tanqidiy maqolalar to‘plami / N.Eshonqul. – Toshkent:,,Akademnashr",2014.

3. Caruth, C. (1996). Unclaimed Experience: Trauma, Narrative, and History. Johns Hopkins University Press.

4.Herman, J. (1992). Trauma and Recovery: The Aftermath of Violence. Basic Books.

5. van der Kolk, B. (2014). The Body Keeps the Score. Viking.

6. Normatov, U. (2004). Ijod siri. G'afur G'ulom nashriyoti.

7. Quronov, D. (2018). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent.

8. Botirov, A. (2015). Nazar Eshonqul ijodida psixologizm. O'zbek tili va adabiyoti, 3, 45–52.